



Fatvo berishga doir hukm va odoblar

Jalolxonov Abbosxon

Toshkent islom instituti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada fatvoberishda muftiy uchun kerak bo'ladigan shartlar va unga tegishli odoblar haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Fatvo, muftiy, harom, sarohatan, hukm, fatvo odobi, mustaftiy, Sufyon Savriy.

Fatvo berishga doir hukm va odoblar:

1. Muftiy fatvo berishdan oldin Alloh taolaga yuzlanib, U zotdan to'g'ri yo'lga boshlashini so'rashi lozim.

Ibn Saloh rohimahulloh aytadilar: Mahhul va Molik rohimahumallohdan toki "Laa havla va laa quvvata illa billah" degunlariga qadar fatvo bermaganlari rivoyat qilinadi.

Sayyid ibn Musayyab rohimahulloh: "Allohim meni omon va mendan omon saqlagin", deb aytgunga qadar fatvoga kirishmas hatto bir so'z aytmas edi.

2. Muftiy o'zidan olimroq kishi topilgan majlisda fatvoga shoshilmasligi lozim. Balki savolni o'sha olimga yo'naltiradi.

3. Muftiy javobning to'g'riligiga ichonch hosil qilgandagina javob berishi lozim.

4. Qalbi (g'azab, mahzunlik, shahvat kabi) fikrlashiga to'sqinlik qiluvchi omillar bilan mashg'ul vaqtda fatvo bermaslik.

5. Muftiy imkoni boricha fatvo so'rovchilardan bo'ladigan odobsizlik, qo'pol muomalalarga sabrli bo'lishi lozim.

6. Muftiy masalaning hukmiga javob berishda fatvo so'rovchi tushunadagan darajada tushunarli holda javob berishi lozim. Mustaftiy chalg'ib qolmasligi uchun javobni



avvalida dalilga kirishmaydi. Agar mustaftiy olim kishilardan bo'lsa, dalillarni avval keltirishni zarari yo'q.

7. Muftiy masalaning hukmini olim ham, omi ham tushunadigan darajada yozishi lozim bo'ladi. Lekin mustaftiy olim kishi bo'lsa istilohiy, ilmiy iboralar bilan yozishning ham zarari yo'q. Ulamolar muftiy chiqargan fatvosini manba'sini ketirishi lozim. Chunki haqiqatan muftiy emas, balki mujtahidlarning birining fatvosini naql qiluvchigina xolos, deb aytganlar.
8. Chiqarilgan fatvo shar'iy hukmni bayoniga va fiqhiy daliligagina cheklanishi lozim. G'azab yoki madhga o'xshash kalimalardan xoli bo'lishi kerak. Shuningdek tushmaslikga olib boradigan qisqalik yoki malollantiruvchi uzun qilib keltirishdan ham saqlanish lozim.
9. "Harom" lafzini faqatgina qat'iy dalillar bilan sobit bo'lgan hukmlarda ishlatish kerak bo'ladi. Sarohatan nas bo'lmagan o'rinlarda yoki ijtiholdli masalalarda esa inkor darajalariga qarab "joiz emas", "rozi bo'linmagan" lafzlarini keltirishi lozim.
10. Muftiy ommayi-balvo bo'lgan o'rinlarda dalillar muboraza kelib qolsa, insonlarga yengillik bo'ladigan tomonga rioya qilishi lozim. Sufyon Savriy aytadilar: "Bizning nazdimizda ilm ishonchli kishi tomonida aytilgan ruhsatdir. Qattiq ushlashni hamma ham eplaydi".
11. Muftiy kitob va sunnatda yoki fiqhiy kitoblarda nas kelmagan yangi hukmlar borasida ibodatgo'y faqihlar bilan maslahatlashib ish tutishi lozim. Bu borada asl qoida Ali roziyallohu anhu rivoyati hisoblanadi.

وَقَدْ وَرَدَ أَنَّهُ سَأَلَ عَلِيُّ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ رَسُولَ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ: يَا رَسُولَ اللَّهِ! مَا أَفَعَلُ إِنْ إِغْتَرَضَنِي أَمْرٌ وَلَمْ أَجِدْ فِيهِ فِي كِتَابِ اللَّهِ وَلَا فِي سُنَّةِ رَسُولِهِ شَيْئاً؟ فَقَالَ: "شَاوِرُوا الْفُقَهَاءَ وَالْعَابِدِينَ وَلَا تَمَضُّوا فِيهِ رَأْيَ خَاصَّةٍ". (رواه الإمام الطبراني)

ya'ni: Hazrati Ali raziyallohu anhu Nabiy sallallohu alayhi vasallamdan so'radilar: "Ey Allohning Rasuli, agar menga bir masala ro'baro' bo'lsa-yu men uning yechimini Allohning kitobdan ham Rasulining sunnatidan ham topolmasam unda qanday yo'l



tutay? Payg'ambarimiz alayhissalom: "Faqih va obidlar bilan maslahatlashinglar, bu ishda xos bir fikrni joriy qilmang" dedilar (Imom Tabaroniy rivoyatlari)¹.

12. Muftiy jumhur fuqaholarga xilof bo'lgan shoz (kamyob) fatvolardan saqlanishi lozim.

Ibn Umarning hadisi bunga yaqqol misol:

عن ابن عمر، أن رسول الله ﷺ قال: "إن الله لا يجمع أمتي - أو قال: أمة محمد ﷺ - على ضلالة، ويد الله مع الجماعة، ومن شذ شذ إلى النار"²

Ibn Umar roziyallohu anhumadan rivoyat qilinadi Rasululloh sallallohu alayhi vasallam:

"Alloh taolo ummatimni yoki ummati Muhammadni zalolatda jamlamaydi. Allohning yadi jamoat uzradir, kim ajrasa do'zah ajrabdi", deb marhamat qildilar.

13. Muftiy shar'iy hukm bayon qilayotgan vaqtda har qanday milliy yoki siyosiy va ichki bosimlarni qabul qilishdan saqlanish kerak. Alloh taolo Qur'oni karimda shunday marhamat qilgan:

الَّذِينَ يُبَلِّغُونَ رِسَالَاتِ اللَّهِ وَيَخْشَوْنَهُ وَلَا يَخْشَوْنَ أَحَدًا إِلَّا اللَّهَ وَكَفَى بِاللَّهِ حَسِيبًا

Ular Allohning risolatlarini yetkazadigan, Undagina qo'rqadigan, Allohdan boshqa hech kimdan qo'rqmaydiganlardir. Allohning O'zi hisob qiluvchilikka kifoyadir³.

14. Agar fatvo usulud-din yoki shari'at juzlariga tegishli bo'lsa, faqat fiqh kitoblariga cheklanmay kitob va sunnatdan ham dalil keltirish vojib bo'ladi. Chunki tavhid, oxirat, zino, xamrning haromligi va shunga o'xshash dinning asl masalalarida itihodga o'rin yo'q

15. Muftiyga boshqa muftiyning fatvosi kelsa:

- Muftiy avvalgi muftiy fatvo layoqatini tekshirish vojib bo'ladi. Agar fatvoga loyiq bo'lmasa, garchi javob to'g'ri bo'lsada uning fatvosini tasdiqlab yozmaydi, balki alohida yozishi kerak.

¹ <http://old.muslim.uz/index.php/english/maqolalar/zhuma-mav-izalari/item/23704-20-11-2020-j-ar-kim-am-ur-on-va-adisdan-ukm-olishga-a-li-emas>

² Muhammad Taqiy Usmoniy. Usulul-ifto va adabuhu. – Damashq: Dorul-qalam. 2018. – B. 372.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qur'oni Karim va uning ma'nolar tarjimasini. – Toshkent: Hilol nashr. 2022. – B. 423.



- Agar avvalgi muftiy fatvo berishga layoqatli bo'lsa, lekin javobi to'g'ri bo'lmasa, bunday holda ham o'z javobini alohida yozadi.
 - Agar avvalgi muftiy fatvoga layoqatli va javobi ham to'g'ri bo'lsa, agar dalili to'g'ri bo'lmasa yoki dalilni to'g'rilashga ehtiyoj tushsa, bu holatda ham o'zining to'g'ri dalillari bilan alohida yozadi.
 - Agar avvalgi muftiy fatvoga layoqatli, javobi ham to'g'ri va shu bilan birga dalili ham muftiyni nazdida dalili to'g'ri bo'lsa, "javob to'g'ri" deb yozib imzo chekadi.
16. Muftiy mustaftiydan imkon boricha qiyinchiliklarni ketkazadi. Mustaftiyga qiyinchilik yetgan bo'lsa, muftiy mustaftuy uchun qiyinchilikni qutuladigan shar'iy yo'lni bayon qiladi.
17. Agar muftiyga masalaning javobi bilinmasa yoki mustaftiy boshqa muftuyga yo'llashini hohlasa, mustaftiyni fatvoga munosib deb biladigan boshqa kishiga yo'llashi eng munosib yo'l hisoblanadi.

Fatvoni yozishga bog'liq odoblar.

1. Muftiy fatvoni yozishda xatini chiroyli qilishga urinishi kerak. Chunki go'zal xat maqsadni tushunishga va chalkashliklardan saqlanishga yordam beradi.
2. Muftiy imkon boricha berilgan savolning qog'oziga javobni yozishi lozim. Shunday qilinmasa mustaftiyni savoli boshqa, olayotgan javobi esa boshqa bo'lib qolish ehtimoli bor bo'adi.
3. Muftiy fatvo yozishni "Basmala, hamdu-sano va salovat" bilan boshlaydi.
4. Fatvo xati chalkashliklardan saqlanilgan holda bo'lishi zarur.
5. Muftiy javobning orqasidan "Alloh biluvchiroq" yoki shuga o'xshash jumalarni yozishi lozim⁴.
- 6 Javobning oxirida imzo qo'yiladi va tarix sanasi kiritiladi.

⁴ Ibn Nujaym. Bahrur-roiq sharhu kanzud-daqiq. – Bayrut: Dorul bashoirul islamiyya. –2013. –B. 453



Muftiyning o'ziga tegishli bo'lgan odoblar.

1. Mansabdor muftiy kiyimi va tashqi qiyofasini go'zal qilishi lozim. Bu holat poklikka e'tibor qaratish, shari'at harom qilgan ipak yoki kofirlarning shiorlari tushurilgan kiyimlardan saqlanish va shunga o'xshash kabilar bilan yuzaga chiqadi.
2. Mansabdor muftiy siyratini ham go'zal tutishi lozim. Muftiy amallarini shari'atga muvofiq amalga oshiradi. Kalomini shari'at mezoniga muvofiq qiladi. Chunki u o'z mansabi bilan qilayotgan ishlari va gapirayotgan kalomida Allohdan bayon qiluvchi namoyanda sifati bo'ladi.
3. Mansabdor muftiy qalbini ham go'zal qilishi lozim. Muftiyning maqsadi Allohning roziligini topish bo'lishi lozim. Insonlarning maqtoqlarini qumsash, shuhratparastlik va insonlar uni ulug'lashini hohlash joiz bo'lmaydi.
4. Muftiy yaxshilikdan yoki nahydan iborat chiqargan hukmlariga o'zi ham amal qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhammad Taqiy Usmoniy. Usulul-ifto va adabuhu. – Damashq: Dorul-qalam. 2018.
2. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Qur'oni Karim va uning ma'nolar tarjimasi. – Toshkent: Hilol nashr. 2022.
3. Ibn Nujaym. Bahrur-roiq sharhu kanzud-daqiq. – Bayrut: Dorul bashoirul islamiyya. – 2013.